

**SATTAROVA NARGIZ TOXIROVNA**

**O‘ZBEKISTONDA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on economic sciences**

**Sattarova Nargiz Toxirovna**

О‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy  
mexanizmlarini takomillashtirish ..... 3

**Саттарова Наргиз Тохировна**

Совершенствование организационно экономических механизмов развитие  
торговых услуг в Узбекистане ..... 27

**Sattarova Nargiz Tokhirovna**

Improvement of organizational economic mechanisms of development of trade  
services in Uzbekistan..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 57

**SATTAROVA NARGIZ TOXIROVNA**

**O‘ZBEKISTONDA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2146 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ivatov Irisbek**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233-38-72; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-38-72; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., dotsent

**M.M.Muxammedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda xizmat ko'rsatish, ayniqsa savdo xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati sezilarli tarzda oshib bormoqda. Jahon bozoridagi rivojlanish darajasi "ayniqsa, jahon savdosining yildan yilga o'sib borayotganligi ko'rsatkichi 2021-yilda 21,051 trillion AQSh dollar tashkil etgan va jami ish o'rinlarining 40%dan ko'prog'i aynan savdo xizmatlariga to'g'ri kelmoqda"<sup>1</sup>. Mazkur jarayon va holatlarning barchasi savdo xizmatlarini jahon andozasiga mos rivojlantirishni hamda savdo korxonalarining tijorat faoliyati samaradorligi o'sib borishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda global integratsiya va raqobatning kuchayishi sharoitida savdo jarayonlarini chuqurlashuvi va taraqqiyoti bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Aholiga ko'rsatiladigan savdo xizmatlari sifati va mobilligini oshirish, ularning hududlar xususiyatini hisobga olgan holda rivojlantirish hamda savdo xizmatlarini innovasion va raqamlashtirish asosida taraqqiy ettirishga ustivorlik berish, dunyo savdosida sifatli xizmatni tashkil etish, savdo korxonalarida xizmatlar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlash, sohaning kelgusi taraqqiyot strategiyasini belgilab olish kabilar amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini shakllantirishda uning yetakchi tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari qatorida savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 barobarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlari yaratish"<sup>2</sup> vazifasi belgilangan. Shuningdek, respublikada xizmat ko'rsatishning asosiy turi hisoblangan savdo xizmatlarini kompleks rivojlantirishda, ayniqsa, sohada tarkibiy o'zgarishlar va diversifikasiyani amalga oshirishda, iste'molchilarning o'sib borayotgan ehtiyojini sifatli qondirishni ta'minlovchi "raqamli savdo"ni tashkil etish va mintaqa talablari asosida savdo klasterini shakllantirish kabi masalalar ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bularning barchasi respublika iqtisodiyoti asosiy tarmog'i hisoblangan savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, savdo xizmatlari hududiy klasterini tuzish uslubini takomillashtirish, "raqamli savdo" xizmatlarini rivojlantirishning o'rta muddatli prognoz parametrlari hamda chakana savdo xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik modellaridan foydalangan holda prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish masalalari bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

---

<sup>1</sup> WTO (2021), World Trade Report 2021: The Future of Services Trade, Geneva: WTO. Trade in services is defined in the General Agreement on Trade in Services (GATS) as comprising four modes of supply: 1 – cross-border supply; 2 – consumption abroad; 3 – commercial presence; and 4 – movement of natural persons

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январда ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Таррақиёт стратегияси"

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5813-son «Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 30-oktyabrdagi PF-5564-son «Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 4-iyundagi PQ-5136-son «Ko‘chma savdo faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish va savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Savdo xizmatlarining rivojlanishi ularning bozor iqtisodiyotida tutgan o‘rni juda ko‘p turli tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, P.Samuelson, F.Kotler, F. Pankratova, K. Ranskiy, A. Fridman<sup>3</sup> kabi yetakchi olimlar savdoda samaradorlikni oshirish va bunga erishishda turli xil modellarni taklif etishgan. O‘zbekistonlik olimlardan M.E.Po‘latov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov I.Ivatov, Q.Mirzayev, D.X.Aslanova<sup>4</sup> kabi olimlar savdo xizmatlarining evolyutsiyasi hamda zamonaviy bozor munosabatlarida savdoni rivojlantirish muammolari bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirilishi yetarlicha o‘rganilmagan. Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari sohasi bilan bog‘liq tadqiqotlar

---

<sup>3</sup> Самуэлсон П. Экономика. В 2-х томах.-М.: НПО “АЛТОН” ВНИСИ 1992, 747 с.; Котлер Ф. Основа маркетинга. -М. Экономика, 1990. -645 с.; Панкратова Ф.Г. Серегина Т.К. Коммерческая деятельность.- Москва, 2001 – 158 с.; Ранцкий К.А. Экономика организации(предприятия) Учеб / К.А. Ранцкий. 4-е издание, 2003 -1012 с.; Фридман А.М. Экономика предприятий торговли и питания потребительского общества. Учебник. -М. «Дышков и К». 2003 -628 с.;

<sup>4</sup> Пулатов.М.Э.,Мирзаев.Қ.Ж. Глобал иктисодий ривожланиш (туризм иктисодиёти). Ўқув қўлланма. Т.:Фан ва технология,2018.-296 б; Мухаммедов М.М. и др.Экономика торговли.Самарқанд,1998.с.282; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения:автореферат диссертации.- Киев.1992.-С.20; Абдукаримов Б.А. Ички савдо иктисодиёти. Дарслик. 2 қисмда. -Т “Фан ва технология”. 2007 -387 с; Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. (Назарий жиҳатлар) //Сервис. -Самарқанд, 2009, №1. С. 38-46; Иватов И. Савдода маркетинг фаолияти. Монография. -Т.: ТГЕУ, 2004 -104с; Мирзаев Қ., Шавқиев Э., Жанзаков Б. Инновацион иқтисодиёт. Ўқув қўлланма, -Т.: “Инновацион ривожланиш матбаа уйи”, 2020 -298 б.

yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsiyani joriy qilish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo xizmatlarini rivojlantirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

savdo xizmatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish hamda "savdo xizmatlari", "savdo xizmatlari samaradorligi" tushunchalari bo'yicha mualliflik ta'riflarini takomillashtirish;

savdo xizmatlari rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va uni baholashning metodologik asoslarini ishlab chiqish;

savdo xizmatlarining xorijiy tajribasini o'rgangan holda, respublikada ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish;

O'zbekistonda savdo xizmatlari bozorini shakllantirish va uni diversifikatsiyalash asosida soha daromadlarini oshirishning imkoniyatlari va omilli tahlilini ishlab chiqish;

Respublikada savdo xizmatlarida iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

Respublikada savdo xizmatlarini raqamlashtirish asosida rivojlantirishning kontseptual yo'nalishlarini takomillashtirish;

O'zbekistonda savdo xizmatlari hududiy klasterini shakllantirishga oid tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

savdo xizmatlarini rivojlantirishning kelgusidagi strategiyasini ekonometrik modeldan foydalangan holda ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida O'zbekiston Respublikasida chakana savdo xizmati ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo xizmatlari ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish savdo xizmatlarini samaradorligini oshirish va ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraktsiyasi, tahlil va sintez, induktsiya va deduktsiya, SWOT tahlili, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, korrelyatsion-regression, ekonometrik usullaridan foydalangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra savdo xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari natijasida aholini tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatishdagi iqtisodiy munosabatlar majmuini o'z

ichiga olgan faoliyatdan iborat “savdo xizmati” tushunchasi hamda savdo xizmatlarini amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi munosabatlar natijadorligini ifodalovchi “savdo xizmatlari samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni takomillashtirilgan;

xizmat ko‘rsatuvchilar va iste‘molchilar faoliyatini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan savdo klasteri kengashi tomonidan tartibga solinuvchi hamda sohaning daromadlilik darajasi va samaradorligini oshirishga imkon yaratuvchi savdo xizmatlari hududiy klasterini tuzish taklifi asoslangan;

respublikada aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi chakana savdo aylanmasi hajmiga hudud xususiyatlariga ko‘ra ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan hamda iste‘molchilar ehtiyojlarini sifatli qondirishga yo‘naltirilgan “raqamli savdo” xizmatlarini rivojlantirishning o‘rta muddatli prognoz parametrlari baholangan;

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida chakana savdo xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik modellaridan foydalangan holda 2027 yilga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari bo‘yicha ilmiy ahamiyati savdo xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ahamiyatga molik xulosa va takliflar ishlab chiqilgan;

savdo xizmatlarini rivojlantirish va uni iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlarini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan;

O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlangan;

Respublikada savdo xizmatlari bozorini shakllantirishning iqtisodiy munosabatlar tizimi takomillashtirilgan;

innovatsion savdo xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribalari tadqiq etilgan, ularni mamlakatda qo‘llash bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlari, savdo korxonalarini hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar, savdo xizmatlari samaradorligi tushunchalari bo‘yicha aholining tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini, sotuvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi munosabatlarni hamda iqtisodiy natijadorlikni hisobga olgan holda takomillashtirilgan ta’rifidan mazkur muammo bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik hamda oliy ta’lim tizimi talabalari uchun o‘quv-uslubiy asoslarni kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi takliflar savdo xizmatlari bo‘yicha xarajatlarni tejashga asoslangan faoliyat ko‘rsatkichlarni (KPI) ilmiy asoslash, savdo korxonalar samaradorligini baholashning ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish, hudud xususiyatlarini

hisobga olgan holda respublikada jon boshiga chakana savdo aylanmasiga omillar ta'sirini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

savdo xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari natijasida aholini tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatishdagi iqtisodiy munosabatlar majmuini o'z ichiga olgan faoliyatdan iborat "savdo xizmati" tushunchasi hamda savdo xizmatlarini amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi munosabatlar natijadorligini ifodalovchi "savdo xizmatlari samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni takomillashtirilgan uslubiy yondashuvdan oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan "Sanoat iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 22-avgustdagi 284-sonli buyrug'i hamda SamISI Kengashining 2022-yil 5-dekabrda 4-sonli majlis qarori). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o'quv yurti talabalarida savdo xizmatlari sifati va intensivligini oshirish hamda xarajatlarni tejash hisobidan iqtisodiy samara olish bo'yicha nazariy-uslubiy bilim va ko'nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan savdo klasteri kengashi tomonidan tartibga solinuvchi hamda sohaning daromadlilik darajasi va samaradorligini oshirishga imkon yaratuvchi savdo xizmatlari hududiy klasterini tuzish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda savdo xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 13-aprelda 11/05-17-4212-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi Samarqand viloyatida savdo xizmatlari hududiy klasterini joriy etilishi natijasida yalpi hududiy mahsulot oshirish hamda savdo subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan olingan daromadni 12 foizga oshirish imkonini yaratgan;

respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi chakana savdo aylanmasi hajmiga hudud xususiyatlariga ko'ra ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan hamda iste'molchilar ehtiyojlarini sifatli qondirishga yo'naltirilgan "raqamli savdo" xizmatlarini rivojlantirishning o'rta muddatli prognoz parametrlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda savdo xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 13-aprelda 11/05-17-4212-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi respublikada savdo infratuzilmasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda sohada "raqamli savdo" konseptual yo'nalishlar asosida iste'molchilar ehtiyojini sifatli qondirish imkonini yaratgan;

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida chakana savdo xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik modellaridan foydalangan holda ishlab

chiqilgan 2027-yilga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda savdo xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 13-apreldagi 11/05-17-4212-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi respublikada chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish asosida 2027-yilda chakana tovar aylanmasi hajmini 1073,1 trln. so'mga yetkazish hamda 2022-yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 11 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Respublikada savdo xizmatlari tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari**" ga bag'ishlangan. Ushbu bobda savdo nazariyasi, savdo xizmatlari sohasining qator ta'riflari, "savdo xizmatlari", "savdo xizmatlari samaradorligi" iqtisodiy kategoriyasining mazmuni aniqlanib, samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash uslubiyati, rivojlangan davlatlar tajribasi va undan respublikamizda foydalanish yo'llari mualliflik yondashuvida yoritilgan. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining global taraqqiyotida xizmatlar soxasida savdo xizmatlari ulushi salmoqli ta'siriga ega bo'lib dunyodagi mehnat taqsimoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki jahonda savdo aloqalarining rivojlanishi mamlakatlarning urfodatlarining tarqalishiga, halqlar madaniyatining yuksalishiga ayniqsa davlatlar iqtisodiyotining muhim jihatlari kengayishiga olib keladi. Tadqiqot ishida O'zbekiston ham jahon tsivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida xalqaro savdo aloqalari munosabatlari rivojining tarixida salmoqli mavqeyeni ega ekanligi ilmiy asoslanildi, va ularni besh davrga ajratib tadqiq etish taklif etildi.

Shuningdek tadqiqot ishida savdo xizmatlarini respublikada rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilib, unga ko'ra savdo xizmatlarini rivojlantirish,

“xalqaro savdo nazariya”lari va “savdo xizmatlari bo‘yicha iqtisodiy munosabatlarni” shu bilan birga savdo aloqalarini rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan. Ayniqsa bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan jahondagi klassik siyosiy iqtisodchi olimlar namoyondalari (A.Smit, D.Rikardo)ning ilmiy qarashlari, shuningdek, rivojlangan davlatlar yetakchi iqtisodchilari (A.Samuelson, R.Vernon)ning bu yo‘nalishdagi alohida fikrlari hamda respublikamiz olimlarining (A.S.Usmonov, Sh.Shodmonov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.Ivatov va boshqalar) ilmiy qarash va yondoshuvlari tahlil qilingan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilganligi sababli savdo xizmatlari sohasini rivojlantirish – aholining hayot farovonligini oshirish, o‘sib borayotgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari talablarini qondirishda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot ishida, savdo xizmatlarini rivojlantirish va uning bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim nazariy asoslarini o‘rganish muhim vazifalardan hisoblanadi va mazkur dissertatsiya ishida ushbu jarayon chuqur o‘rganilgan. Savdo xizmatlarining kelib chiqishi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida tovar ishlab chiqarishni va tovar muomalasi, ayriboshlashni vujudga kelishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, savdo xizmatlar tushunchasining ijtimoiy –iqtisodiy mohiyati ochib berildi.Unga ko‘ra:

**Savdo xizmati** - sotuvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari natijasida aholini tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat ko‘rsatishdagi iqtisodiy munosabatlar majmuini o‘z ichiga olgan faoliyatdan iborat.

**Savdo xizmatlar samaradorligi** - bu savdo xizmatlarini amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi munosabatlar natijadorligini ifodalashdan iborat.

Savdo xizmati aholi ehtiyojini qondirishga, insonlar hayotini yaxshilashga va bandligini ta‘minlashga hamda daromadlarini oshirish orqali ularning farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Savdo xizmatlari sifati, uning moddiy texnika bazasining holati va infratuzilmasi tarkibiga bog‘liq. Respublikada savdo moddiy texnika bazasining holati va infratuzilmasini yanada takomillashtirish uchun yetarlicha salohiyat mavjud.

Tadqiqot natijasida savdo xizmatlarini ko‘rsatish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lganligi uchun uning samaradorligini aniqlashda o‘ziga xos metodologik yondoshuvni talab etsa alohida ko‘rsatkichlar tizimi asosiy hisoblashni talab etadi. Shunga ko‘ra mazkur tadqiqot ishida muhim ko‘rsatkich sifatida savdo xizmatlarida KPI ko‘rsatkichlari tadqiq etildi. Ta‘kidlash joizki KPI ko‘rsatkichlar tizimini yaratish orqali nafaqat individual korxonalar, balki butun sanoat turlarini ham baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. KPI yordamida xodimlarning natijaviyligini samarali baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

KPI asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari xarajatlar kalkulyatsiyasi hamda natijaviy kalkulyatsiyaga bosqichlari orqali umumlashib korxonalar oldiga qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishishning miqdoriy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Xarajatlar

kalkulyatsiyasida resurslar sarfi puldagi ko‘rinishga keltiriladi va mehnat unumdorligi aniqlanadi. Keyin esa ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish quvvatlari aniqlanib rentabellik ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilinadi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida korxonalar tomonidan qo‘yilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga mutanosibligi tekshiriladi va umumlashtiriladi. Umuman, KPI ni joriy etish korxonaning umumiy rivojlanishini monitoring qilishda eng zamonaviy usul hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatkich sohasi korxonalarini samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini professor M.Q.Pardayevning<sup>5</sup>, savdo xizmatlari samaradorligi ko‘rsatkichlarini esa B.A.Abdukarimovning<sup>6</sup> ilmiy asarlarida bayon qilingan va tizimlashtirilgan.

Biz ularning bu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlaridan farqli ravishda raqamli iqtisodiyot sharoitiga mos ravishda savdo xizmatlarida “sodiq” mijoz (savdo korxonalarida ikki martadan ko‘p tovarlarni sotib olgan mijoz) nuqtai nazaridan yondoshilib, hamda KPI-ko‘rsatkichlari tizimida (savdo korxonasini oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishni ta‘minlanganligini baholash) foydalanilgan savdo korxonalarini samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari ilmiy asoslanildi. Quyidagi jadvalda savdo korxonalarida samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqildi (1-jadval).

Bugungi kunda savdo xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha katta xorijiy tajriba mavjud bo‘lib, turli savdo qilish usullarini qo‘llash orqali savdo hajmini oshirish korxonaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jaxon tajribasiga asoslanib yangi bozorlarni egallash, korxonaning bozordagi ulushini oshirish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishda sotuv jarayonida tobora ko‘proq innovatsion texnologiyalar qo‘llanish imkoniyatlari yaratilgan.

Savdo xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribalari, ayniqsa Germaniya, AQSh, Frantsiya, Angliya davlatlarining bu yo‘nalishdagi erishgan ijobiy yutuqlaridan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida respublikamizda savdo xizmatlarni rivojlantirishda quyidagilarga ustivorlik berildi.

Jumladan:

- savdo xizmatlari amaliyotida xaridorlar talabiga mos sotiladigan tovarlar assortimenti va ularni joylashtirishni tizimini shakllantirish;

- savdo xizmatlarini ko‘rsatishda xaridor xarakteri va psixologiyasiga alohida e‘tibor qaratish hamda shu asosda savdo maydonchalarini maxsus dizayn asosida rivojlantirish;

- tovar sotiladigan joylarda xaridorlarning an‘analarini, urf-odatlarini hisobga olish hamda shunga mos sotish maydonchalari tashkil etish;

- savdo xizmatlarini ko‘rsatishda sotish maydonchalari joylashish holati, tovarlarining xususiyatlari, zichligi, assortimentlarini hisobga olgan holda savdoni yangi sotish texnologiyalari ayniqsa raqamlashtirish tizimini shakllantirish va boshqa shu kabilardan iborat.

<sup>5</sup> Пардаев М.Қ. “Хизматларнинг ижтимоий иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари”. (Назарий жиҳатлар) //Сервис. -Самарканд, 2009, №1. С. 38-46

<sup>6</sup>Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. // Ғ.Ҳ.Қудратов, Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, ва бошқалар. // И.ф.д., профессор М.Қ.Пардаевнинг умумий тахрири остида.Иқтисод-молия нашриёти,2016.-430 бет.

Savdo korxonalari samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi<sup>7</sup>

| T/r | Ko'rsatkichning nomi  | Hisoblash tartibi   | Mazmuni  |
|-----|---|---|--|
| 1.  | Sotish rentabellikgi,%  | $R = \frac{D_{jami}}{X_{jami}} * 100$ , $D_{jami}$ –jami daromad so'm, $X_{jami}$ – jami xarajat so'm   | Sotish xizmatlari rentabeligini ifodalaydi   |
| 2.  | $1m^2$ joyga to'g'ri keladigan savdoda sotishdan olingan daromad,so'm                   | $K_{md} = \frac{D_{jami}}{M}$ , $D_{jami}$ –jami daromad so'm, $M$ – korxonado'konning maydoni $m^2$  | Savdoda sotish joylaridan olinadigan daromad o'zgarishini ko'rsatadi                 |
| 3.  | $1m^2$ joyga to'g'ri keladigan savdoda sotishda olingan foyda,so'm                      | $K_{mf} = \frac{F_{jami}}{M}$ , $F_{jami}$ –jami foyda so'm, $M$ – korxonado'konning maydoni $m^2$  | Savdodan sotish joylaridan olingan foyda oshishini ko'rsatadi                        |
| 4.  | Savdoda sotishdagi operasion xarajatlarning daromadlardagi ulushi,so'm                  | $K_{oper} = \frac{X_{oper}}{D_{jami}}$ , $X_{oper}$ – operasion xarajatlar so'm, $D_{jami}$ – jami daromad so'm   | Savdoda sotishdagi operasion xarajatlar daromadliligini ifodalaydi                   |
| 5.  | Sotishdagi "sodiq" mijozlarning jami mijozlardagi ulushi (KPI talabi asosida),%         | $K_{sm_{(kpi)}} = \frac{N_{sodiq}}{N_{jami}} * 100$ , $N_{sodiq}$ – sodiq mijozlar soni, $N_{jami}$ – jami mijozlar soni  | Savdo xizmatlarida KPI talabi asosida "sodiq" mijozlar salmog'ini ifodalaydi         |
| 6.  | Savdo korxonasi daromadining aylanma mablag'lardagi ulushi,%                            | $K_{ayl} = \frac{D_{jami}}{A_{jami}} * 100$ , $D_{jami}$ –jami daromad so'm, $A_{jami}$ – jami aylanma mablag' so'm   | Savdo korxonalarida aylanma mablag'lar salmog'ini ifodalaydi                         |
| 7.  | Savdodagi mehnat resurslarining samaradorligi,so'm                                      | $S_{mehnat} = \frac{A_{jami}}{W_{jami}}$ , $A_{jami}$ – jami aylanma mablag' so'm, $W_{jami}$ – xodimlarga to'langan ish haqi so'm  | Savdo korxonalarda mehnat resurslar samaradorligini ifodalaydi                       |
| 8.  | Savdo korxonasi samaradorligini(KPI asoslangan) baholashning kompleks ko'rsatkichi,so'm | $C_{savdo_{(KPI)}} = \frac{A_{jami}}{X_{mehnat} + Q_{tashqiayl} + Q_{ayl}}$ , $A_{jami}$ – jami aylanma mablag' so'm, $X_{mehnat}$ –xodimlarni saqlashga ketgan xarajatlar so'm, $Q_{tashqiayl}$ –aylanmaydigan mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i, $Q_{ayl}$ –aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i | Savdo korxonalarini samaradorligini baholashni kompleks ko'rsatkichlarini ifodalaydi |

Tadqiqotning ikkinchi bobi "O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligi va uni baholash"ga bag'ishlangan. Mazkur bobda Respublikada savdo xizmatlarining institusional va iqtisodiy asoslarini rivojlantirish yo'nalishlari, savdo xizmatlari bozorini shakllantirish va uni diversifikasiyalash asosida soha daromadlarini oshirishning imkoniyatlari va omilli tahlili, savdo xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqod natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda savdo xizmatlari oxirgi o'n yillikda jadal sur'atlar bilan rivojlanish tendentsiyasiga ega. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki Respublikamizda chakana savdo aylanmasi 2015 yilga nisbatan 2021 yilda eng ko'p o'sishga erishganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa ushbu yo'nalishda ijobiy natijalarga jumladan respublikadagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida yuqori ko'rsatkichlar erishilgan. Mazkur viloyatlarda chakana savdo aylanmasi hajmi 300 foizdan ko'proq o'sgan (2-jadval).

<sup>7</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

**Respublika hududlar bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (amaldagi narxlarda mlrd. so'm)<sup>8</sup>**

| Hududlar                                 | Yillar       |              |                |                |                |                |                |                | O'zgarish foiz hisobida<br>(2015-yilga nisbatan<br>2021-yilda) |
|--|--------------|--------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|--|
|  | 2005         | 2010         | 2015           | 2017           | 2018           | 2019           | 2020           | 2021           |  |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi            | 99,8         | 429,4        | 1 349,3        | 1927,9         | 2 422,8        | 3 028,4        | 3590,6         | 4 269,5        | 316,42   |
| Andijon                                  | 210,8        | 652,8        | 1 929,4        | 2 720,0        | 3 411,3        | 4 138,0        | 4689,9         | 5500,5         | 285,09   |
| Buxoro                                   | 196,4        | 782,8        | 2 489,5        | 3 542,7        | 4 454,9        | 5 399,2        | 6 237,5        | 7328,7         | 294,38   |
| Jizzax                                   | 120,4        | 551,5        | 1 837,2        | 2 622,0        | 3 266,9        | 4 430,9        | 5 173,2        | 6 398,9        | 348,30   |
| Qashqadaryo                              | 152,4        | 496,4        | 1 685,3        | 2 304,7        | 2 772,4        | 3 285,0        | 4 088,4        | 4840,1         | 287,20   |
| Navoiy                                   | 208,0        | 986,4        | 3 260,8        | 4 575,5        | 5 596,9        | 6 858,8        | 7 880,5        | 9 301,0        | 285,24   |
| Namangan                                 | 154,6        | 559,3        | 1 615,7        | 2 367,0        | 2 871,8        | 3 595,7        | 4 309,0        | 5 239,7        | 324,30   |
| Samarqand                                | 146,7        | 526,8        | 1 712,5        | 2 434,5        | 2 958,7        | 3 591,3        | 4 298,2        | 5 264,9        | 307,44   |
| Surxondaryo                              | 161,7        | 621,8        | 1 998,6        | 2 873,0        | 3 479,9        | 4 127,0        | 4 725,4        | 5 564,2        | 278,40   |
| Sirdaryo                                 | 130,1        | 570,4        | 1 590,3        | 2 269,1        | 2 789,6        | 3 731,2        | 4 198,7        | 4 658,0        | 292,90   |
| Toshkent                                 | 241,3        | 881,9        | 2 760,4        | 3 918,7        | 4 896,4        | 6 005,9        | 7 053,7        | 9 208,6        | 333,60   |
| Farg'ona                                 | 207,9        | 606,5        | 1 770,0        | 2 510,9        | 3 088,3        | 3 713,9        | 4 335,7        | 5 149,9        | 290,95   |
| Xorazm                                   | 150,1        | 636,1        | 1 573,2        | 2 204,9        | 2 894,7        | 3 735,9        | 4 569,0        | 5 584,4        | 354,97   |
| Toshkent sh.                             | 662,7        | 2394,9       | 6 540,0        | 9 657,7        | 12295,9        | 14900,1        | 17453,6        | 21789,9        | 333,18   |
| <b>Respublika bo'yicha o'rtacha jami</b> | <b>213,1</b> | <b>765,8</b> | <b>2 274,3</b> | <b>3 249,0</b> | <b>4 041,6</b> | <b>4 946,2</b> | <b>5 828,4</b> | <b>7 145,7</b> | <b>314,19</b>  |

Savdo xizmatlari rivojlanishini baholashda birinchi navbatda eng keng tarqalgan savdo turi bu chakana savdoning rivojlanish tendentsiyasi va unga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib, chiqqan holda biz O'zbekistonda chakana savdo rivojlanishini aks ettiruvchi omil sifatida aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi ko'rsatkichini tahlil qilishga ustuvorlik berdik. Ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillar sifatida sanoatda iste'mol mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini aks ettiruvchi iste'mol mahsulotlari (ozuq-ovqat va noozuq-ovqat)ni ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi, aholining xarid qobiliyatini aks ettiruvchi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real yalpi ichki mahsulot, qishloq xo'jaligi sohasining chakana savdoga ta'sirini baholash uchun yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va narxlarning umumiy o'sish darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlari tanlab olindi.

Tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida tovarlar sonini optimal taqsimlash, tovarlar savdosidan keluvchi daromadlarni maksimallashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan savdo xizmatlari bozorini

<sup>8</sup>Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари.//<https://stat.uz/>.асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

diversifikatsiyalash natijalariga mos (bozor turlari va sotilayotgan tovarlar assortimenti bo'yicha) iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantiruvchi yuqori daromad olish muammosini xal qilish imkoniyatini yaratuvchi simpleks usuli asosida optimallashtirish modelidan foydalangan holda tahlil o'tkazildi. Tadqiqot ishida monografik kuzatuv doirasida Toshkent viloyati Toshkent tumanida faoliyat yurituvchi "Meva –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik" MChJ korxonasi tovarlar assortimentini optimal taqsimlash orqali tovarlar savdosidan keluvchi tushumni maksimallashtirish uslubiyati bo'yicha tajribada asoslanildi..

Bunda quyidagilar o'zgaruvchilar muhim omil sifatida qaraldi:

$x_1$  –likero- sharob 0,1 l;

$x_2$  –likero- sharob 0,25 l;

$x_3$  –likero- sharob 0,375 l.

$x_4$  –likero- sharob 0,45 l.

$x_5$  –likero- sharob 0,5 l.

$x_6$  –likero- sharob 0,7 l.

$x_7$  –likero-sharob 0,75 l.

Mazkur yondoshuv asosida "Meva –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik" MChJ korxonasi 16 xil brend bilan 7 turdagi likero sharob ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar tarkibi iqtisodiy-matematik usullarni foydalangan holda hisob-kitob qilindi.(3-jadval).

Likero-sharob (0,45 l) miqdori (44096)ning pastki chegarisi (22717) va yuqori chegarisining (44096) maqsad funksiyasiga ko'ra eng qulay yuqori narx(baho) natijasi (sof foyda) taklif etildi (4-jadval).

3-4 jadvallardan ko'rinib turibdiki, ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda ekonometrik tahlilga asoslangan optimallashtirish modeli natijalariga ko'ra Toshkent viloyati Toshkent tumanida joylashgan "Meva –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik" MChJ korxonasi 1 kunda eng optimal bo'lgan likero sharob 0,45 litrlik turini ishlab chiqarsa maksimal foydaga erishishi mumkinligi aniqlandi.

### 3-jadval

#### "Meva –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik" MChJ savdo korxonasi tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari tahlili<sup>9</sup> (2021-yil)

| Ko'rsat-kichlar                       | Likero sharob 0,1l | Likero sharob 0,25l | Likero sharob 0,375l | Likero sharob 0,45l | Likero sharob 0,5l | Likero sharob 0,7l | Likero sharob 0,75l |
|---------------------------------------|--------------------|---------------------|----------------------|---------------------|--------------------|--------------------|---------------------|
| 1 daqiqada dona mahsulot              | 0,55               | 0,89                | 0,19                 | 0,09                | 0,19               | 0,14               | 0,12                |
| 1 ta dona mahsulot tannarxi, so'm     | 7200,28            | 7780,33             | 7850,52              | 7890,23             | 8760,13            | 9230,12            | 9460,25             |
| 1 kunlik mahsulot tannarxi, so'm      | 1885090,9          | 3331807             | 709548,8             | 319767,8            | 809913,3           | 611792,9           | 551374,7            |
| 1 yillik mahsulot tannarxi, ming so'm | 622080             | 1099496             | 234151,1             | 105523,4            | 267271,4           | 201891,6           | 181953,6            |

<sup>9</sup> "Meva –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik" MChJ korxonasi tahlil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

**“Meval –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik” MChJ savdo korxonasida  
simpleks usuli asosida hisoblangan chegaraviy hisobot<sup>10</sup>(2021 yil)**

| O‘zgaruvchi           | jami miqdori (dona) | Pastki        | Maqsad funksiyasi       | Yuqori        | Maqsad funksiyasi       |
|-----------------------|---------------------|---------------|-------------------------|---------------|-------------------------|
|                       |                     | Chegara, dona | Natija (sof foyda),so‘m | Chegara, dona | Natija,(sof foyda) so‘m |
| Likero-sharob 0,45 l. | 44096               | 22717         | 51114705,88             | 44096         | 99216000                |

Tadqiqot davomida, O‘zbekistonda chakana savdo xizmatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida qishloq xo‘jaligi mahsuloti, iste’mol narxlari indeksi o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan foizda, jon boshiga real yalpi ichki mahsulot va iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi kabi omillar tanlab olindi. Bunda quyidagi nazariy matematik model kelib chiqadi.

$$Y = \alpha + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \epsilon \quad (1);$$

Bu yerda  $Y$  –jon boshiga chakana savdo aylanmasi

$X_1$  – qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m;

$X_2$  – iste’mol narxlari indeksi o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan foizda;

$X_3$  –jon boshiga real yalpi ichki mahsulot, so‘m;

$X_4$  – iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi,mlrd. so‘m;

$\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$  –tegishli koeffitsiyentlar;

$\alpha$  – ozod had;

$\epsilon$  –o‘lchov xatoligi;

Shunday qilib, tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida yuqorida keltirib o‘tilgan omillarning jon boshiga chakana savdo aylanmasiga ta’sirini baholash hisoblanadi.

Ushbu modelni hisoblash natijalariga mos algebraik ko‘rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Y = 986,23 + 0,04X_4 - 7,36X_2 \quad (2);$$

Tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol narxlari indeksi, p qiymatning nolga yaqin qiymatlaridan kelib chiqib, o‘zgaruvchilarining jon boshiga chakana savdo aylanmasiga ta’siri 96% ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yuqorida tasvirlangan model jon boshiga chakana savdo aylanmasi o‘zgaruvchisining 99,43% o‘zgarishini tushuntirib berar ekan. Umuman olganda,  $(Y | X_2, X_4)$  ushbu omilli tahlil modeliga ko‘ra iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning bir milliard so‘mga ortishi erksiz o‘zgaruvchining 40 so‘mga ortishiga hamda iste’mol narxlari indeksining 1 % birlikka oshishi esa jon boshiga chakana savdo aylanmasining 7360 so‘mga kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlatning qo‘llab-quvvatlashi natijasida savdo xizmatlari sohasida yuqori sifat va raqobatbardoshlik darajasini ta’minlovchi quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

<sup>10</sup> “Meval –Sharbat Ilmiy Eksperimental Vinochilik” MChJ korxonasiining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi

Jumladan:

- respublikada savdo xizmatlari ko'rsatgichlarining tashqi bozoridagi o'rinini oshirib, xizmatlar eksporti kengayadi va xalqaro sifat sertifikatlariga erishishni ta'minlash;

- aholining o'sib borayotgan sifatli maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirilib xaridorlarning sifatli tovarlarni tanlash imkoniyati oshadi;

- respublika chakana va ulgurji savdo tarmoqlarida sifatli maxsulotlarni sotishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkorlar roli oshadi;

- savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda pul aylanmasi tezligi oshadi va natijada olinadigan daromad ko'payib ularning sifat bo'yicha nazorati oshib boradi;

- yuqori sifatli savdo xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha qulay investitsion muhit yaratiladi va boshqalardan iborat;

Globalashuv sharoitida O'zbekistonda chakana savdoni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, iste'mol bozorida faoliyatni tartibga soluvchi yangi qoidalar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish;

- tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish uchun iste'mol bozorini boshqarishning (muvofiqlashtirishning) samarali tizimini yaratish;

- ob'yektlarni shaharsozlik talablari va eng yangi fan va texnika yutuqlariga muvofiq rekonstruktsiya qilish va modernizatsiya qilish;

- savdo tarmoqlari tuzilmasini rivojlantirish va optimallashtirish;

- giper va supermarketlar, "maishiy do'konlar" va kichik chakana bozorlar tizimini rivojlantirish;

- kam ta'minlangan toifadagi fuqarolar uchun ijtimoiy yo'naltirilgan savdo xizmatlari tarmog'ini, shu jumladan chegirmali do'konlarni ustuvor rivojlantirish;

- aholining barcha ijtimoiy guruhlari uchun tovarlarning hududiy mavjudligini ta'minlash; savdo tarmog'ini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini shakllantirish;

- savdo tarmog'i yetishmaydigan yangi korxonalarni joylashtirish;

- kichik chakana savdo tarmog'i ob'yektlarini tartibga solish va sifat jihatidan yaxshilash, aniqlanmagan joylarda savdoga barham berish bilan bog'liq masalalarni tezroq hal yetish; kichik chakana savdo tarmog'ini zamonaviy savdo majmualariga o'tkazish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish, mavsumiy sotish uchun savdoning asosan do'kon ichidagi shakllariga (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, peshtaxta orqali savdo), do'kondan tashqari savdo shakllariga bosqichma-bosqich o'tish;

- iste'molchilarning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olish: vaqt va pulni tejash; savdo markazlarida madaniy-ko'ngilochar tadbirlarning mavjudligi;

- tovar sifati va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada savdo xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari ilmiy asoslanilib, hamda ustivor yo'nalishlari mohiyati ochib berildi:

Davlat tomonidan savdo xizmatlarini qo'llab-quvvatlash va tartibga solishda soliq siyosatini rivojlantirishga erishish (soliq yukini kamaytirish, soliq kafolatlari va imtiyozlarini berish);

savdo xizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda moddiy -texnika bazasini mustahkamlash tizimini takomillashtirish asosida soxa samaradorligini yanada oshirishga erishish va bunda davlat tomonidan olib borilgan islohotlar savdo xizmatlarini zamonaviy asosda qayta jixozlashni (yangi terminallar, yangi raqamli xizmat ko‘rsatish) amalga oshirish;

O‘zbekistonda savdo xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy mexanizmlari ilmiy asoslanilgan jumladan, iqtisodiy mexanizm sifatida savdo xizmatlarini samaradorligi bilan bog‘liq iqtisodiy mexanizm sifatida narx siyosati axoli bandligini ta‘minlash, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, savdo xizmatlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash taklifi ishlab chiqarilgan. Shuningdek, tashkiliy-xuquqiy mexanizm sifatida tashkiliy boshqaruv tuzilmasini rivojlantirish savdo sohasida intellektual kadrlarni tayyorlash hududiy innovatsion dasturlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash raqamli axborot bilan ta‘minlash tizimini shakllantirish ko‘rsatib berilgan. Moliyaviy mexanizm sifatida esa savdo xizmatlari bo‘yicha qulay innovatsion muhit imtiyozli kreditlash tizimi davlat resurslaridan samarali foydalanish kabi asoslangan.

